

XALQ TA'LIMI

ISSN 2181-7839

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Muassis:

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi

PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN

2022

2-son

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqsa boshlagan
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT

X _T		TAHRIRIYAT
	4	Ilm izlash, ijod qilish – inson kashf etgan amallar, faoliyatlar ichida eng serzahmati
TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI		
N.Abdullayeva	5	Pedagogik mas'uliyatni shakllantirish – kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishning integral komponenti sifatida
A.Rasulov	10	Umumiy o'rta ta'limga muktabalarida zamnaviy ta'limga klassteri sharoitida iqtisodiyot bilim assoslari fani o'qitishning zarurligi
D.Axmadjonov	13	Akseologik yondashuv asosida bag'rikenglik kompetensiyasini rivojlantirish
T.Sultanov	17	Ilk boshlang'ich ta'limga pedagogikasining muhim jihatlari va ularning izohlari
S.Toshboyev	21	Ta'limga innovatsiyalar va ularning tahlili
TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI		
J.Ravshanov	25	O'quvchilarda tahliliy kompetensiyalarni shakllantirishda an'anaviy ta'limga metodlaridan foydalanish
K.Abdullayev	27	Adabiyot darslarida tarix, tasviriy san'at, musiqa fani materiallaridan foydalanishning pedagogik-psixologik assoslari
H.Bakiyeva	31	Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarning lingvistik kompetensiyasini shakllantirish
M.Mamadjanova	34	Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisini mantiqiy masalalarni yechishga metodik tayyorgarligini ta'minlash
G'.Nabihev	38	Maktab o'quvchilarida tadbirkorlik qobiliyatlarini shakllantirish
Z.Umarova	40	Umumiy o'rta ta'limga muktabalarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etish metodikasi
D.Ismoilova	44	K.D.Ushinskiyning pedagogik merosini o'qitish interfaol metodlar
TA'LIM SIFATI: MAZMUN VA MOHIYAT		
Sh.Qo'qonboyeva	47	Bo'lajak fizika o'qituvchilarining boshlang'ich kasbiy kompetentligining shakllanganlik darajasini aniqlash
ZAMONAVIY TA'LIM TEKNOLOGIYALARI		
R.Musurmonov A.Suyarov	52	Ta'limga jarayonida zamnaviy yondashuv imkoniyatlari
F.Maxmudova	56	Ta'limga integrativ yondashuvni tashkil etish pedagogik muammo sifatida
D.Ximmataliyev B.Xayridinov	59	Masofaviy ta'limga zamnaviy axborot va kommunikatsiya vositalarining ahamiyati
S.Qorayev N.Tirkashev	62	Kompetensiyaviy ta'limga – o'qituvchi va o'quvchi munosabatlarda sifat uyg'unligining asosi
A.Abdullayev	65	Professional ta'limga tizimida arxitekturaviy loyihalashni o'rgatishda interfaol metodlardan foydalanish
I.Qodirov	68	Shaxsga yo'naltirilgan ta'limga texnologiyalari asosida tarix darslarinin samarali tashkil etish

Zuxra UMAROVA,

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti,
"Boshlang'ich ta'lif metodikasi" kafedrasi o'qituvchisi

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA PEDAGOGIK KONFLIKTLARNI BARTARAF ETISH METODIKASI

Annotatsiya

Maqolada umumiy o'rta ta'lif maktablarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etish metodikasi masalasi tahlil etilgan.

Kalit so'zlar. Ta'lif, umumiy, o'rta, maktab, pedagogika, konflikt, metodika, bilim, tushuncha.

В статье проанализирован вопросы методики преодоление педагогические конфликты в общеобразовательных средних школах.

Ключевые слова. Образование, общей, средний, школа, педагогика, конфликт, методика, знание, смысл.

The article analyzes the issues of methodology for overcoming pedagogical conflicts in secondary schools.

Key words. Education, general, secondary, school, pedagogy, conflict, methodology, knowledge, meaning.

“Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasi"da "inson kapitalini rivojlantirishning eng muhim omili hisoblangan sifatli ta'lif va tarbiyani amalga oshirish" belgilangan. Bu vazifa birinchidan, inson kapitalini, ya'ni shaxsning aqliy va bilim imkoniyatlarini kengaytirish; ikkinchidan, sifatli ta'lif va tarbiyani rivojlantirish, ya'ni mazkur sohani ilmiy, nazariy hamda metodologik jihatdan takomillashtirishni taqozo etadi. Shu jihatdan umumiy o'rta ta'lif maktablarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etish metodikasini ishlab chiqish zaruriyat bo'lib turibdi. Chunki o'quvchilarning aqliy va bilim imkoniyatlarini kengaytirish hamda sifatli ta'lif va tarbiyani amalga oshirish jarayonida tabiiy ravishda pedagogik konfliktlar yuzaga keladi.

Pedagogik konfliktlar – bu ta'lif va tarbiya jarayonida ta'lif ishtirokchilar o'tasida yuzaga keladigan ziddiyatlar majmuidir. Ayni paytda, pedagogik konfliktlarning ijobjiy va salbiy xususiyatlari mavjudligini ta'kidlash joiz. Uning ijobjiy jihatni ta'lif ishtirokchilarini faollashtirish bilan belgilanadi. Salbiy jihatni esa ta'lif ishtirokchilarida tushunmovchiliklarning kelib chiqishi bilan izohlanadi. Shu sababli bu o'rinda salbiy xususiyatlarga ega pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning eng asosiy metodlari tahliliga e'tiboringizni tortamiz.

1. Pedagogik konfliktlarni aniqlash metodikasi. Bu metodikaga ko'ra, sinf rahbari boshchiligidagi muayyan sinf o'quvchilarida uchraydigan konfliktlar o'rganish orqali aniqlanadi. Bunday o'rganish o'quvchilar o'tasida test o'tkazish, ular bilan suhbatlashish, o'qituvchilarning fikrlarini bilish va o'quvchilarning o'zaro hamda o'qituvchilar bilan munosabatlarini kuzatish shakllari vositasida amalga oshiriladi. Mazkur aniqlash jarayonida pedagogik konfliktlarning turlari va ko'rinishlari namoyon bo'lishi tajriba-sinovdan o'tgan. Pedagogik konfliktlarni umumiy o'rta ta'lif maktablarida uchraydigan turlarini aniqlash metodikasida turlicha yondashuvlar mavjud. Bunday yondashuvlar umumiy o'rta ta'lif maktablari sharoitlari, o'qituvchilarning pedagogik konfliktlar asoslaridan xabardorligi va

qo'yilgan maqsad asosida yuzaga keladi. Shu sababli pedagogik konfliktlarni aniqlash metodikasida ta'lim muassasasidagi mavjud holatlardan kelib chiqish ham samarali hisoblanadi. Buning uchun quyidagilarga amal qilish umumiy tarzda tavsiya etiladi;

– sinflar kesimida o'quvchilarda uchraydigan pedagogik konfliktlarni aniqlash rejasini tuzish;

– konfliktlarni aniqlovchi guruh tuzish va ularning vazifalarini belgilash;

– mazkur reja va guruh tarkibini maktab pedagogik kengashi tasdig'idan o'tkazish.

Chunki mazkur masalalarni hal qilib olish pedagogik konfliktlarni aniqlash metodikasi tarkibiga kiradi. Shu jihatni borki, sinflar kesimida o'quvchilarda uchraydigan pedagogik konfliktlarning turlarini aniqlash muayyan vaqtini talab etadi va murakkab hisoblanadi. Shu sababli mazkur masalada aniq metodikaga tayanish kutilgan samara beradi.

2. Aniqlangan pedagogik konfliktlarni tahlil etish metodikasi. Mazkur metodikaga ko'ra, muayyan sinda aniqlangan pedagogik konfliktlar tahlil etiladi. Bunday tahlil pedagogik konfliktlarni turlarga, ko'rinishlarga bo'lish, ularning sabablarini aniqlash hamda o'quvchilarda uchraydigan pedagogik konfliktlarning ko'rinishlarini belgilash va o'quvchi hamda o'qituvchilar o'rtasidagi ziddiyatlarning ko'lamini aniqlashtirish shaklida amalga oshiriladi. Bu tahlil sind rafbari boshchiligidida tuzilgan guruh tomonidan amalga oshiriladi. Ayni paytda, sind rafbari boshchiligidagi tahlil guruhi mazkur jarayonni amalga oshirishda quyidagilarga e'tibor berishi maqsadga muvofiq hisoblanadi:

– aniqlangan pedagogik konfliktlarni turlari, ko'rinishlari va shakllariga asosan tasniflash;

– tahlil davomida eng ko'p uchragan pedagogik konfliktlarni alohida tahlil qilish va ularning asosiy sabablarini belgilash;

– tahlillar natijasida aniqlangan pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning vositalarini aniqlashtirish.

Bunday yondashuv pedagogik konfliktlarni tahlil etish metodikasini aniqlashtiradi. Shuningdek, imkoniyat bo'lsa aniqlangan konfliktlarni tahlil etishda xorijiy pedagogikaning tahlil metodlaridan foydalanish ham maqsadga muvofiq bo'ladi. Misol uchun, Rossiya Federatsiyasi pedagog olimlari ko'p hollarda aniqlangan pedagogik konfliktlarni statistik, foizlarga ajratish va ularning hajmlarini belgilash metodlariga asoslanadi. Bizning yondashuvimizga ko'ra, aniqlangan pedagogik konfliktlarni tahlil etishda eng qulayi, ma'lumotlarni real taqdim etuvchi va tushunarli xususiyatlarga ega metodlarga asoslanish kutilgan samarani beradi. Shu sababli bunday tahlil jarayonida jadvallar, diagrammalar, chizma kabilardan foydalanish tahlil metodikasida qulaylik yuzaga keltiradi.

3. Aniqlangan pedagogik konfliktlarni bartaraf etish yo'llarini ishlab chiqish metodikasi. Guruh tomonidan tahlil natijasida aniqlangan pedagogik konfliktlarning turlari va ko'rinishlarini bartaraf etish yo'llari belgilanadi. Bunday belgilashda o'quvchilarda uchraydigan pedagogik konfliktlarni suhbat vositasida bartaraf etish, ularning muammo-larini hal qilish va o'quvchi hamda o'qituvchilar o'rtasida uchraydigan pedagogik konfliktlarning ko'rinishlarini metodik tavsiya belgilari bilan hal etish yo'llari belgilanadi. Ta'kidlash joizki, aniqlangan pedagogik konfliktlar bartaraf etish yo'llarini belgilashda imkon qadar murosa g'oyasiga tayanishi lozim. Mazkur metodikada o'ziga xos shunday bir xususiyat borki, ishlab chiqiladigan bartaraf etish yo'llari umumiy o'rta ta'lim maktablarining real sharoitlariga asoslanadi. Chunki aniqlangan pedagogik konfliktlarni bartaraf etish yo'llarini ishlab chiqishda quyidagilarga asoslanish kutilgan samarani beradi:

– mavjud real sharoit va imkoniyatlarni hisobga olish;

– konfliktlarni bartaraf etishga yo'naltiriladigan vositalarni imkoniyatlardan kelib chiqib belgilash;

– konfliktlarni bartaraf etish muddatini sinflar kesimida belgilab qo'yish.

E'tibor berilsa, aniqlangan pedagogik konfliktlarni bartaraf etish yo'llarini ishlab chiqish metodikasida "yetti o'lchab – bir kesish" tamoyiliga asoslanish lozim. Bundan tashqari, konfliktlarni bartaraf etish yo'llarini ishlab chiqishda imkon qadar ilmiy mutaxassis yordamidan foydalanish ham samarali hisoblanadi. Chunki pedagogik konfliktlar bo'yicha ilmiy mutaxassis – pedagog aniqlangan pedagogik konfliktlarning bartaraf etish yo'llarini ilmiy jihatdan takomillashtiradi va ilmiy asoslangan bartaraf etish metodikasi kutilgan samarani beradi. Misol uchun, 7-sinf o'quvchilarida o'zaro tushunmovchilik pedagogik konflikti ko'p uchraydi. Bu konflikt turini bartaraf etish yo'li mazkur o'smir yoshdagi o'quvchilarning ruhiyatini sokinlantirish, ularni hamkorlikka tortish va ularning fikrlarini hisobga olish kabi ilmiy asoslangan yondashuvlarga tayaniladi. Shunda o'smir yoshdagi o'quvchilarning o'zaro tushunmovchilik ziddiyatini bartaraf etish metodikasi kutilgan samarani beradi.

4. Monitoring tashkil etish metodikasi. Aniqlangan pedagogik konfliktlashlarning turlari va ko'rinishlarini bartaraf etish jarayoni guruh tomonidan monitoringga olinishi kerak. Unga ko'ra, har bir pedagogik konflikti bartaraf etish nazoratga olinadi, bartaraf etish jarayonida yuzaga keladigan muammolar tezkor ravishda hal etib boriladi va amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida maktab jamoasiga muntazam ma'lumot berib boriladi. Shu tariqa aniqlangan pedagogik konfliktlarni o'z vaqtida amaliy bartaraf etishga erishiladi. Mazkur monitoring tashkil etish metodikasida quyidagilarga asoslanish maqsadga muvofiq bo'ladi:

– monitoringni sinflar kesimida tashkil etish va uni har bir chorak yakunida tahlil qilib borish;

– monitoring asosida aniqlangan ma'lumotlarni guruhga taqdim etish;

– monitoring natijalari bo'yicha maktab pedagogik kengashiga ma'lumot berib borish.

Bunday yondashuv monitoring tashkil etish metodikasini kuchaytiradi va uning samaradorligini oshiradi. Aynan monitoring metodikasi asosida umumiyoq o'rtalim maktablarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etib borish bo'yicha ma'lumotlar va yo'nalishlarga ega bo'lib boriladi.

E'tibor berilsa, umumiyoq o'rtalim maktablarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etish metodikasi qulayligi, osonligi va samaraligi bilan ajralib turadi. Unutmaslik lozimki, umumiyoq o'rtalim maktablarida uchraydigan pedagogik konfliktlar quyidagi xususiyatlarga ega bo'ladi:

1) ta'lif va tarbiya hodisasi asosida yuzaga keladi;

2) muddatli va o'tkinchi xarakterda bo'ladi;

3) ularni hamisha bartaraf etish imkoniyatlari ko'rniib turadi;

4) pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda faqat ta'lif qonuniyatlariga asoslanadi.

Shu sababli umumiyoq o'rtalim maktablarida pedagogik konfliktlarning turlari va ko'rinishlarini bartaraf etish uchun ilmiy asoslangan metodikaga tayanish taqozo etiladi. Chunki ta'lif va tarbiya xususiyati shuni taqozo etadi. Shu jihatdan ilmiy asoslangan metodika deganda quyidagilar nazarda tutilishi kerak:

– muammoni aniqlash yo'llari ko'rsatilgan bo'lishi;

– ta'lif oluvchilar va ta'lif beruvchilarning huquqlari ustuvor darajada nazarda tutilishi;

– muammoni hal etishning qulay, oson va samarali yo'llari ko'rsatilgan bo'lishi;

– ta'lif muassasasining imkoniyatlari hisobga olinishi.

Bunday yondashuv ilmiy asoslangan metodikaga ega bo'lishga va uning vositasida pedagogik konfliktlarni bartaraf etish imkoniyatlari tayanishga olib keladi.

O'mi kelganda shuni ta'kidlash lozimki, umumiyl o'rta ta'lif maktablari o'qituvchilari pedagogik konfliktlarning turlari va ko'rinishlari to'g'risida aniq ko'nikmaga ega bo'lishi taqozo etiladi. Bu masalani hal etish uchun pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kurslari o'quv jarayoniga "Umumiyl o'rta ta'lif maktablarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etish metodikasi" kursini kiritish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Umumiyl o'rta ta'lif maktablarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etish metodikasini ishlab chiqish ishiga pedagogik ilmiy-tadqiqotchiligidan endi kirishilmoqda. Shu sababli biz bu o'rinda eng oddiy va qulay metodika tahlilini e'tiboringizga taqdim etdik. Diqqat qilinsa, umumiyl o'rta ta'lif maktablarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etish metodikasi bo'yicha aniq metodlar pedagog olimlar tomonidan ishlab chiqilgan. Ammo bu metodlardan foydalanish uchun ular to'g'risida aniq ma'lumot va ko'nikmaga ega bo'lish kerak.

Umumiyl o'rta ta'lif maktablarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etish metodikasining samaradorligiga erishish uchun oldimizda quyidagi uch muhim vazifani hal etish turibdi:

– birinchidan, oliy pedagogik ta'lif jarayonida bo'lajak o'qituvchilarga pedagogik konfliktlar va ularni bartaraf etish metodikasi bo'yicha chuqurlashtirilgan nazariy bilim hamda ko'nikma berish;

– ikkinchidan, amaliy faoliyatdagi o'qituvchilarimizning pedagogik konfliktlar bo'yicha ko'nikmalarini pedagoglarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kurslari vositasida tarkib toptirish;

– uchinchidan, umumiyl o'rta ta'lif maktablarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etish metodikasi bo'yicha ilmiy, nazariy va metodologik ilmiy – tadqiqotlar yaratish hamda ularning natijalarini amaliyot uchun taqdim etish.

Mazkur vazifalarni hal etish jarayoniga kirishilganini eslatib o'tish joiz. Bu borada ayniqsa, Toshkent davlat pedagogika universiteti va Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika institutida ilmiy – amaliy ishlar boshlangan.

Shunday qilib, umumiyl o'rta ta'lif maktablarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etish metodikasi bo'yicha ilmiy, nazariy va metodologik ishlamalarni yaratish dolzarb bo'lib turibdi. Bu borada oliy pedagogik ta'lif jarayonida to'plangan milliy tajribaga tayanish kutilgan samarani beradi.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo'lini qat'iy davom ettiramiz. – T., 2021.
2. Axmedova M. Pedagogik konfliktlogiya. – T., 2020.
3. Umarova Z. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etish. – T., 2021.
4. Наймушина А.Г. Педагогическая конфликтология: методические указания. – Тюмень: ТГНУ. 2013.

Bosh muharrir:

Mahmudov Sarvar Yuldashevich

Mas’ul kotib:

Suyarova Lutfiya Muxiddinovna

Bosh dizayner – badiiy muharrir:

Mamasoliyev Akbarali Hamzayevich

Tahrir hay'ati:

Baxtiyor SAIDOV, Risboy JO'RAYEV, Komiljon MUQIMOV, Ulug'bek INOYATOV, G'ayrat SHOUMAROV, Maqsudjon YULDASHEV, Oynisa MUSURMONOVA, Lola MO'MINOVA, Dilyara SHARIPOVA, Barno ABDULLAYEVA, Rohatoy SAFAROVA, Xolboy IBRAGIMOV, Ravil IS'YANOV, Mirodiljon BARATOV, Sharibboy ERGASHEV, Yashin ISMANDIYAROV, Muhabbat MIRSALIYEVA, Bahodir MA'MUROV, Shukurullo MARDONOV, Ulfat MAHKAMOV.

Jamoatchilik kengashi:

Dilshod KENJAYEV, Sobitxon TURG'UNOV, Nargiza RAXMANKULOVA, Abduhalim MAHMUDOV, Kamola RISKULOVA, Feruza QODIROVA, Islom ZOKIROV, Ravshan ABDUXAIROV.

Tahririyat manzili:

Toshkent shahar Shayhontoxur tumani Navoiy ko'chasi, 30-uy.

E-mail: xalq_talimi@xtv.uz Tel: (0 371) 231-16-51, Faks: 231-16-52

Jurnalga yuborilgan maqolalarga javob qaytarilmaydi, jurnalda e'lon qilingan maqolalardan olinigan matnlar “Xalq ta'limi” ilmiy-metodik jurnalidan olindi, deb ko'rsatilishi shart.

Jurnal 2015-yil 20-martdagи 214/2-sonli qarori bilan OAK ilmiy nashrlari ro'yxatiga kiritilgan.

“TAFAKKUR NASHRIYOTI” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent shahri, Shayhontoxur tumani, Navoiy ko'chasi, 30-uy

Bosishga ruxsat etildi: ____-____-____-y. Qog'oz bichimi 70x100 1/16. Ofset bosma usuli.

Shartli b.t. 12,0. Adadi ____ nusxa. – buyurtma.

Bahosi kelishilgan narxda.

Ushbu songa mas’ul – Qarshiboyeva Hilola Murtazayevna

© “Xalq ta'limi” jurnalı, 2022.